

## **BOLALARDA TASVIRIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI, TALIMIY USSULLARI**

**Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi**  
**O‘zbekiston, NavDPI**  
**Maktabgacha ta’lim kafedrası o‘qituvchisi**

**Annotatsiya:** maskur maqolada bolalardagi tasviriy qobiliyatlarni anglash va rivojlantish masalalari yoritilib berilgan. Bolalarda tasviriy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik asoslari, ta’limiy usullari keltirib o‘tilgan. Ta’lim jarayonida tasviriy qobiliyatlarni rivojlantirishning turlicha usullaridan foydalanish orqali bola tasavvurini yanada kengaytirish masalalari yoritilib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** tasviriy qobiliyat, layoqat, vosita, usullar, ta’lim tizimi.

### **PEDAGOGICAL PRINCIPLES, EDUCATIONAL METHODS OF DEVELOPING PICTURE SKILLS IN CHILDREN**

**Annotation:** the article highlights the issues of understanding and development of visual abilities in children. Pedagogical bases and educational methods of developing pictorial skills in children are mentioned. The problems of further expansion of the child's imagination by using different methods of development of visual abilities in the educational process are highlighted.

**Key words:** visual ability, ability, tool, methods, educational system.

### **ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ, ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ИЗОБРАЖЕНИЯ У ДЕТЕЙ**

**Аннотация:** в статье освещаются вопросы понимания и развития зрительных способностей у детей. Приведены педагогические основы и образовательные методы развития изобразительных навыков у детей. Освещены проблемы дальнейшего расширения воображения ребенка путем использования в образовательном процессе различных методов развития изобразительных способностей.

**Ключевые слова:** зрительная способность, способность, инструмент, методы, образовательная система.

Har bir qobiliyat psixikaning umumiy xususiyatlariga qarab, murakkab tuzilishga ega. Bolalar qobiliyatini rivojlantirish uchun asos - bu birinchi navbatda erkinlikdir. Ijodiy shaxsni shakllantirish hozirgi bosqichda pedagogik nazariya va amaliyotning muhim vazifalaridan biridir. Uning rivojlanishi maktabgacha yoshdan samaraliroq boshlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun hamma narsa qiziq va g‘aroyib tuyiladi. Bu davrda ularni aynan nimalar yoki qanday faoliyatlar qiziqtirishini aniqlash qiyin. Sababi bola uchun borliqning hali o‘rganilmagan, anglab yetilmagan narsalari ko‘p. Maktabgacha ta’lim tizimiga “Ilk

qadam” o‘quv dasturining joriy etilishi bu masalalarni salmoqli yechilishiga asos bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Dastur asosida har bir bolaning imkoniyatlarini, qiziqishlarini hisobga olgan holda rivojlanish markazlarida ta’lim-tarbiya jarayonlari tashkil etiladi. Har bir markaz bola uchun muhim hisoblanadi. Bolalarni ushbu markazlarga jalb qilish uchun pedagog-tarbiyachilardan masuliyat hamda pedagogik mahorat talab qilinadi.

San’at markazida bolalarning qo‘l- barmoq motoriklari, ranglarni ajrata bilish, yasash texnikasi, mo‘ljallash mahoratlari rivojlanadi. Bolalarning ijodiy qobiliyatlari qo‘llab-quvvatlanadi. San’atning rassomlik, haykaltaroshlik, turlari kabi iqtidor hamma bolada ham kuzatilmaydi. Shu sababli bunda faqat iqtidorli bolalar ishtirok etadi. Markaz kerakli jihozlar bilan to‘liq ta’minlansa, yasash, chizish texnologiyalari ertalabki, kechki soatlarda o‘rgatilsa, markaz ishi rivojlanadi. Boladagi tasviriy qobiliyatlar ham aynan san’at markazida yanada rivojlanadi, tarkib topadi.

Tasviriy faoliyat jarayonida, ob’ektlarning shakli, ularning nisbati, rangi, inson ko‘rgan narsalarini tahlil qiladi, qiyoslaydi, ya’ni ijodkorlik vaqtida fikrlash jarayoni faollashadi. Bolalarda ijodkorlik tasviriy faoliyatga bo‘lgan qiziqishlari ularda shu faoliyatga nisbatan qobiliyatni namoyon qilishi mumkin. Shu o‘rinda savol tug‘iladi bolada tasviriy qobiliyat tug‘ma paydo bo‘ladimi yoki keyinchalik shu faoliyatga nisbatan qiziqishlari etiborga olinib shakllanadimi?

Odatda, qobiliyatlar insonga shaxsning barcha individual psixologik xususiyatlari kabi tabiat tomonidan tug‘ma ravishda tayyor holda berilmaydi. Balki hayot davomida va faoliyat jarayonida shakllanadi. Ilmiy psixologiya qobiliyatlarning tug‘maligi nazariyasini inkor etib shaxs qobiliyatlarining noma’lum tabiiy omillar tomonidan azaliy belgilanishi to‘g‘risidagi tasavvurlarga qarshi zarba beradi. Istalgan qobiliyat rivojlanishining birlamchi bosqichi uning uchun zarur bo‘lgan organik hosilalarning etilishi yoki ularning asosida kerakli fundamental organlarning shakllanishi bilan bog‘liq. Odatda, bu tug‘ilishdan boshlab, 6-7 yoshgacha bo‘lgan davrda sodir bo‘ladi. Ushbu bosqichda barcha analizatorlar faoliyatining takomillashuvi, bosh miya po‘stlog‘i alohida sohalarining rivojlanishi va ular vazifasining bo‘linishi amalga oshiriladi. Bu bolada umumiy qobiliyatlarning shakllanishi va rivojlanishining boshlanishi uchun qulay sharoit yaratib beradi, bu qobiliyatlarning ma’lum darajasi maxsus qobiliyatlar keyingi rivojlanishining sharti bo‘lib hisoblanadi.[1] Yana bir layoqat degan tushuncha borki u asosida qobiliyat rivojlanadi. Bolada har bir yo‘nalish bo‘yicha layoqatlar namoyon bo‘ladi. Shunday ekan kattalar boladagi ushbu layoqatlarni erta anglab yetishi va rivojlantirish uchun harakat qilishi lozim.

Bugungi kunda MTT tarbiyachilarining eng ustuvor vazifalaridan biri “Ijodkor bolani” tarbiyalashdir. Bu jarayon qanchalik erta boshlansa samarasi shunchalik barvaqt namoyon bo‘ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta’sir qiladi. Tarbiyachi pedagoglar taqlid qilish ijodkorlikni shakllantirishning asosiy mexanizmi ekanligini unutmasligi kerak. Bu shuni anglatadiki, bolaning tasviriy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun unga yaqin odamlar orasida bola o‘zini tanitadigan ijodiy shaxs bo‘lishi kerak. Bolalarning tasviriy qobiliyatini

rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish ham katta rol o'ynaydi. Ota-onalar bolaga nafaqat rivojlanish imkoniyatini berishlari, balki faol ishtirok etishlari kerak. Bolaga bosim bilan ta'sir o'tkazish eng katta xato hamda kelajagi uchun asoratli muammo tug'diri mumkin. Bosim va majburlash boladagi bor qobiliyatlarni ham so'ndiradi.: vizual, og'zaki va amaliy bo'lishi kerak.

- Vizual usullar ko'rish orqali amalga oshadi. Bunda bola tasvirlamoqchi bo'lgan obyektни chizilgan yoki haqiqiysini ko'rish orqali namoyon bo'ladi. Masalan, gullar rasmini chizishda xonadagi tirik yoki yasama suniy gullarni ko'rishi, ularning yaproqlari, gul barglari tanada qanday joylashganligini ko'rish orqali gul rasmini chizish texnikasi oshadi.
- Og'zaki usul yordamida tasvir to'grisida ma'lumot oladi uni ertaklar, hikoyalar orqali eshitsu tasvirni badiiylashtirishga harakat qiladi.
- Amaliy usullar o'yinlarni, turli modellarni yaratish va ulardan foydalanishni va rivojlanish mashqlarini bajarishni o'z ichiga oladi[13].

Xulosa o'rnida shuni takidlash mumkinki pedagog ta'lim jarayonini samarali tashkil etishi bola uchun ko'plab imkoniyatlarni ochib beradi. Boladagi tasviriy qobiliyatlarni tarkib toptirishni asosiy maqsad sifatida amalga oshirish uchun ko'plab yo'llarni izlab chiqish, samarali usullardan foydalanish, bola bilan individual shug'ullanish, tasviriy vositalarda unumli foydalanishga imkon yaratish lozim. Kattalar tomonidan boladagi tasviriy qobiliyatlar uchqunlarini erta anglash ushbu qobiliyatning mukammal darajasiga ko'tarilishga imkon yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. M.U. Hamidova, F.A. Karimova "Tasviriy faoliyatga o'rgatish maxsus metodikasi" Toshkent-2014y
2. S.F. Abdirasilov "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi". T.:2012
3. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika". T.:Tafakkur bo'stoni, 2013
4. Nurmatova M.SH. Xasanova SH.T. "Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faolyatga o'rgatish metodikasi". "Cho'lpon", T.: 2010
5. Norboyeva M. "Maktabgacha ta'limda ijodiy faoliyat asoslari" ma'ruzalar matni. Termiz-2018y
6. МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ АССОЦИАЦИИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА Г.Рахматова - Интернаука, 2020
7. МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ АССОЦИАЦИЙ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА
8. Г Рахматова - современный научно-исследовательский журнал педагогики, 2021
9. Кубаева М. Visual technologies based on the principles of demonstration is the foundation for pre-schoolers" education //in Library. –2022. –Т. 22. –No. 2. –С. 189-200.
10. Кубаева М. Ekologiktarbiya berishda vizual texnologiyalardan foydalanish //in Library. –2022. –Т. 22. –No. 1. –С. 8-11.
11. Кубаева М. Секреты пробуждения любви к природе //inLibrary. –2021. –Т. 21. –No. 2. –С. 51-53.

12. Kubaeva M. B. Q. THE USE OF VISUAL TECHNOLOGIES OF EDUCATION IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 06. – С. 6-10.
13. М Кубаева Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda vizual texnologiyalarning o'rni // in Library 2021 (1), 102-105
1. М Кубаева Важность экосистемного образования для дошкольников// in Library 2022 (4), 921-926
2. <http://library.zionet.uz>
3. <http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/120/html/103003/18.Mavzu.Qobiliyat.htm>

## **YOSHLAR MA'NAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA ALISHER NAVOIY IJTIMOY- FALSAFIY QARASHLARINING O'RNI.**

**Ochilova Maftuna Shuxratovna**  
**Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Alisher Navoiyning asarlarida yoshlarning dunyoqarashini shakllanitrishdagi ijtimoiy-falsafiy qarashlar tahlil etilgan. Insonni o'zini anglashi uchun zarur bo'lgan ilm, ma'rifat, ma'naviy-axloqiy masalalar falsafiy jihatdan yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** iymon, axloq, investitsiya, nafs, ma'naviyat, hadis, pandnoma.

## **ПРИМЕР СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДОВ АЛИШЕРА НАВОИ В РАЗВИТИИ ДУХОВНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ МОЛОДЕЖИ**

**Аннотация:** в данной статье анализируются социально-философские взгляды молодежи в творчестве Алишера Навои. Философски освещены наука, просвещение, духовно-нравственные вопросы, необходимые для самореализации человека.

**Ключевые слова:** вера, мораль, вложение, желание, смысл, хадис, панднама

## **THE EXAMPLE OF ALISHER NAVOI'S SOCIAL PHILOSOPHICAL VIEWS IN THE DEVELOPMENT OF THE SPIRITUAL WORLDVIEW OF YOUNG PEOPLE**

**Abstract:** this article analyzes the socio-philosophical views of young people in the works of Alisher Navoi. Science, enlightenment, spiritual and moral issues necessary for human self-realization are covered philosophically.

**Key words:** faith, morality, investment, desire, meaning, hadith, pandnama.